

ETNOLEKT VA MULTIETNOLEKT: NEMIS TILIDAGI TIL Q'ZGARISHLARINING YANGI KO'RINISHLARI

*Israilova Nigoraxon Xudaberdiyevna, Andijon davlat chet tillari
instituti doktoranti*

ЭТНОЛЕКТ И МУЛЬТИЭТНОЛЕКТ: НОВЫЕ ФОРМЫ ЯЗЫКОВЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

*Исраилова Нигорахон Худабердиевна, докторант
Андижанского государственного института иностранных
языков*

ETHNOLECT AND MULTIETHNOLECT: NEW FORMS OF LANGUAGE CHANGE IN GERMAN

*Israilova Nigorakhon Khudaberdievna, PhD student at the
Andijan State Institute of Foreign Languages*

Annotatsiya: Ushbu maqolada etnolekt, sotsiolekt va multietnolekt tushunchalarining sotsiolingvistik jihatlari hamda nemis tilidagi ijtimoiy identifikatsiya jarayonlariga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada nemis tilida yuzaga kelgan etnolekt va multietnoleklarning jamiyatdagi kommunikativ va identifikatsion roli empirik misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: etnolekt, sotsiolekt, multietnolekt, sotsiolingvistika, til identifikatsiyasi, til tabaqalanishi, an'anaviy dialekt.

Abstract: This article analyses the sociolinguistic aspects of the concepts of ethnolect, sociolect and multiethnolect and their impact on social identification processes in German. Furthermore, the article examines the communicative and identificational role of the ethnolects and multiethnolects that have emerged in German on the basis of empirical examples.

Keywords: ethnolect, sociolect, multiethnolect, sociolinguistics, language identification, language stratification, traditional dialect.

Аннотация: В данной статье анализируются социолингвистические аспекты понятий этнолекта, социолекта и мультиэтнолекта, а также их влияние на процессы социальной идентификации в немецком языке. Кроме того, в статье на основе эмпирических примеров рассматривается коммуникативная и идентификационная роль этнолектов и мультиэтнолектов, сформировавшихся в немецком языке.

Ключевые слова: этнолект, социолект, мультиэтнолект, социолингвистика, языковая идентификация, языковая стратификация, традиционный диалект.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatning turli tabaqalari tomonidan o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ldi. Har bir til o'zining ichki tizimli xususiyatlari bilan bir qatorda, jamiyatning ijtimoiy, madaniy va tarixiy jarayonlari ta'sirida shakllanadi. Ushbu

maqolada etnolekt, sotsiolekt va multietnolekt tushunchalarining sotsiolingvistik tafovutlari hamda nemis tilida ijtimoiy identifikatsiya jarayonlariga ta'siri tahlil qilinadi. Til ijtimoiy identifikatsiyaning asosiy omillaridan biri bo'lib, individlarning qaysi guruhga mansubligini belgilashda muhim rol



<https://orcid.org/0009-0007-1233-5202>
israilova.n@gmail.com

o‘ynaydi. Migratsiya jarayonlari, madaniy aralashuv va ijtimoiy tabaqlanish natijasida yangi til shakllari yuzaga keladi. Etnolektlar ma’lum bir etnik guruhga mansub bo‘lgan kishilar tomonidan qo‘llanadigan tildan hosil bo‘lsa, sotsiolektlar esa ijtimoiy tabaqlanish natijasida shakllanadigan til variantlaridir. Multietnolekt esa bir nechta etnik guruhlar o‘rtasidagi muloqot natijasida paydo bo‘ladigan til shakli bo‘lib, ko‘p madaniyatli jamiyatlarda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi.

Nemis tilida etnolekt va multietnolektlar Kiezdeutsch kabi variantlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu til shakllari an'anaviy dialekt va mintaqaviy variantlardan farq qiladi, chunki ular asosan shahar muhitida va turli etnik guruhlar vakillari o‘rtasida rivojlanadi. Shuningdek, migratsiya va globalizatsiya jarayonlari ushbu fenomenlarning shakllanishida muhim omillardan biridir. Maqola doirasida ushbu lingvistik birliklarning shakllanishi, ijtimoiy funksiyalari va nemis tilidagi umumiyo‘zgarishlarga ta’siri keng tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR **TAHLILI** **VA**
METODOLOGIYA **(ЛИТЕРАТУРА** **И**
МЕТОДОЛОГИЯ / **MATERIALS AND**
METHODS). Etnolekt, sotsiolekt va multietnolekt kabi tilshunoslik tushunchalarini tadqiq qilishda sotsiolingvistika, psixolingvistika va kommunikativ lingvistika bo‘yicha ilmiy adabiyotlarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot yo‘nalishlarida yetakchi olimlar tomonidan til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, migratsiya jarayonlari ta’sirida til tizimining o‘zgarishi, shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatida tilning roli keng tahlil qilingan. Etnolekt, sotsiolekt va multietnolekt kabi lingvistik fenomenlar so‘nggi o‘n yilliklarda tilshunoslik va sotsiolingvistika sohalarida keng o‘rganilmoqda. Ayniqsa, migratsiya jarayonlarining kuchayishi va jamiyatda ko‘p madaniyatilikning ortishi natijasida ushbu tushunchalar atrofidagi ilmiy bahslar yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

Etnolekt atamasi dastlab William Labov tomonidan sotsiolingvistika doirasida ilgari surilgan bo‘lib [1], keyinchalik Heike Wiese tomonidan keng tadqiq qilingan. Wiese o‘zining “Kiezdeutsch: Ein neuer Dialekt entsteht” asarida nemis tilidagi Kiezdeutschni etnolekt sifatida ko‘rib, uning lingvistik xususiyatlari va jamiyatdagi o‘rnini tahlil qiladi. Uning ta’kidlashicha, Kiezdeutsch nafaqat

migratsiya fonidagi etnolekt, balki yangi, barqaror grammatik qoidalar bilan shakllangan lingvistik tizimdir [2:45b.]. Bundan tashqari, Auer & Hinskens o‘z tadqiqotlarida Gastarbeiterdeutsch va Türkendeutsch kabi til hodisalarini o‘rganib, ularning grammatik jihatdan nemis tiliga moslashgan, ammo fonologik va leksik jihatdan ajralib turuvchi xususiyatlarini aniqlagan [3:112b.]. Bu variantlarda so‘z tartibi, fe’l va predloglarning ishlatilishida muayyan o‘zgarishlar kuzatiladi.

Sotsiolektlar jamiyatning muayyan guruhlari tomonidan shakllantirilgan lingvistik variantlar bo‘lib, nemis tilida yoshlar tili, kasbiy jargonlar va ijtimoiy guruhga xos leksika shaklida namoyon bo‘ladi. Labov va Cheshire sotsiolektlarni aniq belgilangan ijtimoiy qatlamlar, masalan, yoshlar, kasbiy guruhlar va submadaniyatlar orqali o‘rganadi. Nemis tilida yoshlar sotsiolektlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, Androutsopoulos yoshlar tili va nemis hip-hop madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, muayyan ijtimoiy guruhlarning o‘zaro identifikatsiyasi uchun sotsiolektlarning qanday ishlatilishini tahlil qiladi [4:133b]. Bundan tashqari, kasbiy jargonlar bo‘yicha Klaus Mattheier tomonidan olib borilgan tadqiqotlar nemis tilidagi tibbiyot, huquq va texnika sohalaridagi sotsiolektlarni tavsiflaydi [5:57b.]. Masalan, nemis shifokorlarining tilida mavjud “Intensivbettenmangel” (reanimatsiya bo‘limlarida o‘rin yetishmovchiligi) yoki huquqshunoslikda ishlatiladigan “Tatbestandsmerkmal” (huquqiy faktlar belgilari) kabi so‘zlar ushbu qatlamning o‘ziga xos sotsiolektsion birliklari hisoblanadi. Multietnolektlar migratsiya va ko‘pmadaniyatli jamiyatlarning lingvistik mahsulidir. Heike Wiese Kiezdeutschni multietnolekt sifatida tavsiflab, uning leksik va sintaktik jihatdan an'anaviy nemis tilidan farqli ekanligini isbotlaydi. Boshqa tomondan, Fandrych & Salim Kanaksprak deb nomlanuvchi lingvistik fenomenni o‘rganib, uning migratsiya madaniyatining ta’siri ostida shakllangan multietnolekt ekanligini ko‘rsatgan. Ular Kanaksprakni o‘ziga xos sintaktik soddalashuv va nemis grammatikasiga nomuvofiq bo‘lgan so‘z birikmalarining keng tarqalishi bilan tavsiflaydi [6:94b].

Mazkur tadqiqot etnolekt, sotsiolekt va multietnolekt tushunchalarining lingvistik va sotsiolingvistik jihatlarini nemis tilidagi mavjud ilmiy adabiyotlar va empirik materiallar asosida tahlil qilishga asoslanadi.

Korpus sifatida Germaniyada shakllangan Gastarbeiterdeutsch, Türkendeutsch, Kiezdeutsch va Kanaksprak kabi fenomenlarga oid matnlar, yozma nutq namunalari va transkriptlar tahlil qilinadi. Ushbu materiallar asosan ilmiy manbalar, tilshunoslik tadqiqotlari va onlayn resurslardan olinadi.

Etnolekt va multietnolektlarning sotsial kontekstdagi ishlatalishini o'rganish maqsadida yozma va og'zaki matnlarni semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilish. Ushbu tahlilda Kiezdeutsch va boshqa til variantlari qanday kommunikativ vazifalarni bajarishi va ularning ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi rolini ko'rsatish maqsad qilingan. Etnolekt, sotsiolekt va multietnolekt tushunchalarini an'anaviy nemis dialektlari bilan taqqoslash. Ushbu metod orqali ularning fonologik, morfologik va sintaktik jihatdan qaysi jihatlari bilan farqlanishi yoki o'xshashligi aniqlanadi. Masalan, Kiezdeutschning sintaktik xususiyatlari Germanianing turli mintaqaviy dialektlari bilan qiyoslanishi mumkin.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION)

Etnolektlar tilshunoslikda

muayyan etnik guruhlar tomonidan ishlataladigan til variantlari sifatida tavsiflanadi. Nemis tilida bu hodisaning eng yaqqol misollaridan biri "Gastarbeiterdeutsch" bo'lib, 1950-1970-yillar oralig'ida Germaniyaga mehnat muhojirlari sifatida kelgan turk, italyan va yugoslav ishchilari tomonidan shakllangan. Ushbu til varianti grammatikaning soddalashtirilgan shakllaridan va ona tilidan olingan so'zlashuv elementlaridan iborat edi. Masalan:

"Ich nix verstehen," (Standart nemis tilida: "Ich verstehe nicht. ,")

"Du machen sauber," (Standart nemis tilida: „Du machst sauber.“)

Bundan tashqari, "Türkendeutsch" (Turklar nemischasi) ham etnolektga misol bo'lib, bu variant Germaniyada yashovchi turk kelib chiqishiga ega yoshlar tomonidan ishlataladi. Ushbu variantda o'z ona tili ta'siri ostida nemis tilining o'zgacha sintaktik va leksik xususiyatlari kuzatiladi.

Sotsiolektlar ma'lum bir ijtimoiy guruhga tegishli bo'lgan kishilar tomonidan ishlataladigan til shakllaridir. Nemis tilida sotsiolektlar yoshlar tili (Jugendsprache) va kasbiy jargonlarda (Fachjargon) yaqqol ko'rindi. Yoshlarga xos tilda quyidagi xususiyatlari uchraydi:

"Chillen" (dam olish, standart: sich entspannen)
"Läuft bei dir!" (hamma narsa yaxshi ketyapti, standart: Du hast Erfolg!)
"Cringe" (uyatli yoki noqulay vaziyat, standart: peinlich)

Multietnolekt turli etnik guruhlar tomonidan yaratilgan va shahar muhitida shakllangan til shaklidir. Nemis tilidagi eng mashhur multietnolektlardan biri Kiezdeutsch bo'lib, asosan Berlin va boshqa yirik shaharlarda yashovchi yoshlar orasida tarqagan. Kiezdeutsch xususiyatlari orasida soddalashtirilgan sintaktik tuzilmalar va boshqa tillardan olingan leksik birliklar mavjud:

„Gib mal Stift!“ (Standart nemis tilida: „Gib mir mal einen Stift!“)

„Isch geh Schule.“ (Standart nemis tilida: „Ich gehe zur Schule.“)

Bundan tashqari, "Kanaksprak" ham ko'p etnik guruh vakillari o'rtasida paydo bo'lgan multietnolekt bo'lib, u Germaniyada turli migratsion qatlamlar ta'sirida shakllangan. Ko'rinish turibdiki, etnolektlar muayyan etnik guruh tilining xususiyatlarini aks ettirsa, multietnolektlar ko'p madaniyatli muhitlarda shakllanadi. Nemis tilida, xususan, migratsiya fonida Kiezdeutsch multietnolekt sifatida rivojlanmoqda. Bu til shakli leksik jihatdan turk, arab, rus va boshqa tillardan olingan so'zlarni o'z ichiga oladi. Germaniyada Kiezdeutschning keng tarqalishi jamiyatda turlicha baholanmoqda. Ba'zi tilshunoslari buni yangi til shakli deb hisoblashsa, boshqalar uni nemis tilining "buzilishi" sifatida ko'radi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tadqiqot natijalariga ko'ra, etnolekt va multietnolektlar migratsion jarayonlarning bevosita natijasidir. Nemis tilida Kiezdeutsch kabi til shakllari nafaqat yoshlar o'rtasida, balki ijtimoiy aloqa vositasi sifatida ham muhim rol o'yaydi. Tadqiqot davomida Gastarbeiterdeutsch va Türkendeutsch singari nemis tilidagi etnolektlarning asosiy lingvistik xususiyatlari aniqlandi. Ushbu etnolektlar nemis tili grammatikasiga moslashgan bo'lsa-da, fonologik va sintaktik jihatdan nemis tilining standart variantidan farq qiladi. Misol uchun, "Wallah, ich kann nicht machen!" ("Vallohi, men qila olmayman!")

"Lass mal haram Sachen nicht machen." ("Keling, harom narsalarni qilmaylik.")

Ushbu misollarda arabcha va turkcha so'zlar nemischa gap strukturasiga integratsiya qilingan. Sotsiolektlar jamiyat ichidagi muayyan guruhlarga

xos bo‘lib, ayniqsa yoshlar tili va kasbiy jargonlar nemis tilida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot davomida quyidagilar aniqlandi:

"Ich chill heute mit meinen Jungs." ("Bugun do‘sralim bilan dam olaman.")

"Das ist voll krass, Alter!" ("Bu juda zo‘r, aka!")

Ushbu jumllalarda "chillen" (ingliz tilidan olingan), "krass" (shiddatli, hayratlanarli) va "Alter" (yoshlar orasida "aka" yoki "do‘s" ma‘nosida ishlataladi) kabi sotsiolektal birliklar mavjud.

Multietnolektlar, xususan Kiezdeutsch va Kanaksprak, urbanistik muhitda shakllangan bo‘lib, nemis jamiyatidagi ko‘pmadaniyatilikning lingvistik aksidir.

Kiezdeutsch sintaksi standart nemis tilidan sezilarli darajada farq qiladi. Misol uchun: "Isch geh Kino." ("Ich gehe ins Kino."), "Hast du Problem?" ("Hast du ein Problem?"). Garchi Kiezdeutsch ko‘proq norasmiy muhitlarda ishlatsa ham, ba’zi olimlar uni kelajakda yangi dialekt sifatida shakllanishi mumkin bo‘lgan til varianti deb hisoblashmoqda [2:101b.]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tilshunoslar va sotsiolingvistlar orasida etnolekt va multietnolektlarning standart nemis tiliga ta’siri bo‘yicha turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar ushbu lingvistik hodisalarini nemis tilining buzilishi deb baholashsa [7], boshqalar ularni tilning tabiiy evolyutsiyasi doirasida ko‘rib chiqishadi [2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nemis tilidagi etnolekt, sotsiolekt va multietnolektlar lingvistik o‘zgarish jarayonlarining muhim qismidir. Ular kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi, ijtimoiy guruhlarni o‘zaro bog‘laydi va madaniy identifikatsiyani shakllantiradi. Kelajakda bu til variantlari o‘z holicha saqlanib qolishi yoki yangi rasmiy til shakliga aylanib borishi mumkin. Ularning shakllanishi va rivojlanishi lingvistik hamda ijtimoiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu

maqola doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, multietnolektlarning nemis tilidagi o‘rnini ortib bormoqda va bu jarayon kelajakda ham davom etishi kutilmoqda. Kelgusida ushbu mavzuni yanada kengroq o‘rganish uchun lingvistik tahlil usullaridan foydalangan holda til xususiyatlarini empirik tadqiq qilish va ularning jamiyatda qabul qilinish darajasini o‘rganish zarur. Ayniqsa, nemis tilidagi etnolekt va multietnolektlarning ta’lim tizimiga ta’siri, ularning nemis tili grammatikasi va leksik tarkibiga kiritilish imkoniyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Labov, W. (1972). Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
2. Wiese, H. (2012). Kiezdeutsch: Ein neuer Dialekt entsteht. München: C.H. Beck.
3. Auer, P., & Hinskens, F. (2005). The role of interpersonal accommodation in a theory of language change. In: Theories and methods in language variation.
4. Androutsopoulos, J. (1998). Deutsche Jugendsprache: Untersuchungen zu ihren Strukturen und Funktionen. Frankfurt am Main: Lang.
5. Mattheier, K. (1996). Soziolinguistik: Eine Einführung. Tübingen: Niemeyer.
6. Fandrych, C., & Salim, S. (2010). Jugendsprachen: Theoretische und empirische Perspektiven. Berlin: de Gruyter.
7. Schlobinski, P. (2013). Kiezdeutsch: Ein neuer Dialekt entsteht? Tübingen: Narr Francke Attempto.

